

Mudofaa sohasidagi innovatsion texnologiyalar festivali
“MS ITF-2024”da “3D modellashtirish” musobaqasini
o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM

So‘ngi yillarda Mudofaa vazirligi tizimida zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnikalarni ishlab chiqarish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, harbiy sohaga innovatsion g‘oyalar hamda texnologiyalarni keng jotriy etish, shuningdek, ilmiy-tadqiqod, tajriba – konstruktorlik tadbirlarini samarali yo‘lga qo‘yish borasida jadal ishlar olib borilmoqda.

Shu munosabat bilan mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024- yil 27- martdagi 25/1/202-sonli ko‘rsatmasiga asosan Mudofaa sohasidagi innovatsion texnologiyalar festivali “MS ITF-2024” da “3D modellashtirish” musobaqasini tshkil etish va sifatli o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1- bob. Umumiy qoidalar

1.1. “3D modellashtirish” musobaqasi – ishtirokchilar kompyuter grafikasi fanidan olgan bilimlarini ijodiy qo‘llash, o‘z iqtidorlarini namoyon etishga qaratilgan gumanitar va tabiiy ilmiy, umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlaridan an’anaviy ravishda o‘tkaziladigan intellektual tanlov;

1.2. Ushbu bellashuv yakka tartibda amalga oshiriladi.

1.3. Musobaqada ishtirok etish mutlaqo bepul.

1.4. Musobaqada 25- yoshgacha bo‘lgan yoshlar qatnashishi mumkin.

1.5. Tanlovda oldindan ro‘yxatdan o‘tgan shaxslar ishtirok etishi mumkin.

1.6. 3D modellashtirish musobaqasi to‘liq Offline formatda o‘tkaziladi.

1.7. Ishtirokchilar bir vaqtning o‘zida turli guruhlarda qatnashishi qat’iyan taqiqlanadi.

1.8. “3D modellashtirish” musobaqasini xolis va adolatli o‘tkazilishini nazorat qilish hamda natijalarini tahlil etish hay’atga yuklatiladi.

1.9. Tashkilotchilar quyidagi huquqlarga ega:

- ishtirokchilarni oldindan ogohlantirmasdan musobaqa ssenariylarini o‘zgartirish;

- a’zolari oldindan ogohlantirmasdan infratuzilma tarkibini o‘zgartirish.

1.10. Ishtirokchilarga quyidagilar taqiqlanadi:

- ishtirokchilar boshqalar tomonidan yaratilgan dizaynlar, modellar yoki aktivlardan tegishli ruxsatisiz foydalanmasligi yoki takrorlamasligi kerak.

- taqdim etilgan modellar boshqalarning intellektual mulk huquqlarini, jumladan, savdo belgilari, logotiplar yoki mualliflik huquqi bilan himoyalangan materiallarni buzmasligi kerak.

- modellarda ochiq yoki haqoratli materiallar, jumladan, nafratli nutq, zo’ravonlik, yalang’ochlik yoki grafik tasvirlar bo’lmasligi kerak.

- ishtirokchilar aldashing har qanday shakliga, jumladan, til birlashtirishga, ruxsatsiz dasturiy ta'minot yoki plaginlardan foydalanishga yoki raqobatdosh bo'lmagan manbalardan yordam so'rashga kirishmasliklari kerak.

- modellar tanlov tashkilotchilari tomonidan belgilangan talablar va texnik shartlarga javob berishi va belgilangan muddatda topshirilishi kerak.

- ishtirokchilar tanlov tashkilotchilari tomonidan belgilangan barcha qoidalar va ko'rsatmalarga, jumladan, muddatlar, fayl formatlari va topshirish tartiblariga rioya qilishlari kerak.

2-bob. Musobaqaning maqsad va vazifalari

2.1. "3D modellashtirish" musobaqasining maqsadi – ishtirokchilarning o'quv-bilish, o'quv-tadqiqotchilik faoliyatini rag'batlantirish; yoshlarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish; iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun zaruriy sharoitlarni yaratish; har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishdan iborat.

2.2. Quyidagilar musobaqaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

iste'dodli ishtirokchilarni aniqlash, ular faoliyatini ilmiy va uslubiy jihatdan muvofiqlashtirib borish, sohada ilg'or tajribalarni ommalashtirishda respublika va xalqaro tajribalarni inobatga olish; iqtidorli ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash, intellektual o'sishi uchun sharoit yaratish; ishtirokchilarda o'quv faoliyatiga va bo'lajak kasbiga qiziqishni oshirish;

ishtirokchilar uchun o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirishda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari hamda interfaol usullarni tatbiq etilishini ta'minlash;

2.3. Kimlar uchun:

- 3d modellashtirishga qiziqqan har bir kishi uchun ochiq;

- ishtirokchilar to'g'ri ism va familiya bilan ro'yxatdan o'tishlari kerak (pasportdagi ism bilan bir xil).

3-bob. Musobaqani o'tkazish tartibi

3.1. Mudofaa sohasidagi innovatsion texnologiyalar festivalida "3D modellashtirish" musobaqasini tashkil etish va o'tkazish bir bosqichda:

3.2. "3D modellashtirish" musobaqasini o'tkazish uchun Mudofaa vazirligi jamoatchilik asosida Hay'at tuziladi.

3.3. "3D modellashtirish" musobaqasi topshiriqlari dasturga mos holda, tegishli tashkilotlar tomonidan tuziladi va Hay'atga topshiriladi. Mazkur qo'mita mavjud variantlar asosida yangi variantlarni tuzadi.

3.4. "3D modellashtirish" musobaqasi 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1-kun 1 bosqich nazariy test;

2-kun 2 bosqich: Ijodiy ish topshiriqlari.

3.5. Musobaqa **100 ballik** tizimda Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan baholanadi.

Hakamlar hay'ati **75 va undan yuqori** ball to'plagan ishtirokchilar orasidan ballar ketma-ketligi bo'yicha I, II, III- o'rinlarni aniqlaydi va qaydnomani rasmiylashtiradi. Keyingi o'rinlar ballar ketma-ketligida yuqoridan pastga qarab aniqlanadi.

Agar barcha ishtirokchilarning to'plagan ballari maksimal ballning **71 foizidan (71 ball)** kam bo'lsa, ushbu fan bo'yicha g'olib aniqlanmadi deb hisoblanadi.

3.6. "3D modellashtirish" musobaqasining shaffofligini ta'minlash mas'uliyati Hay'at zimmasida bo'ladi. Hay'at a'zolari 2-ilovaga asosan tuziladi.

3.7. Musobaqa o'tkazilishi yuzasidan qatnashuvchi ishtirokchilar, jamoa rahbarlaridan natija e'lon qilingandan so'ng 1 soat ichida tushgan yozma shikoyat va arizalar Hakamlar hay'ati tomonidan musobaqa jarayonida bevosita joyida hal etiladi.

3.8. Musobaqani o'tkazish jarayonida maskur nizomning 1.10 bandini buzgan ishtirokchi Hakamlar hay'ati dalolatnomasi asosida musobaqadan chetlashtiriladi. Dalolatnoma Hakamlar hay'ati raisi va a'zolari hamda tartibga amal qilmagan ishtirokchi yoki rahbar tomonidan imzolanadi.

3.9. "3D modellashtirish" musobaqasi qatnashchisi pasporti (asl nusxasi) musobaqada ishtirok etadi.

3.10. "3D modellashtirish" musobaqasini o'tkazish jarayoni va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar Mudofaa sanoatining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarida yoritiladi.

4-bob. Musobaqada g'oliblarini aniqlash tartibi

4.1. "3D modellashtirish" musobaqasi g'olibini aniqlash va taqdirlash Hay'at qo'mitasi qarori natijalariga asosan amalga oshiriladi;

4.2 "3D modellashtirish" musobaqasining ishtirokchilari erishgan natijalari teng kelib qolsa, sovrindorni aniqlash uchun ularga qo'shimcha amaliy va nazariy mashqlar beriladi va bu holat g'olib aniqlangunga qadar davom ettiriladi. Aniqlangan natija Hakamlar hay'ati tomonidan bayonnoma tuzilib, har ikki ishtirokchining imzosi qo'yilgan holda rasmiylashtiriladi.

4.3. Olimpiada g'olibi quyidagicha belgilanadi:

birinchi o'rin – bir nafar;

ikkinchi o'rin – bir nafar;

uchinchi o'rin – bir nafar.

4.4. "3D modellashtirish" musobaqasida qatnashib, g'olib bo'lgan qatnashuvchilariga diplom hamda belgilangan pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

5-bob. Musobaqani yakunlash tartibi

5.1 "3D modellashtirish" musobaqasini o'tkazuvchi bajargan ishlari bo'yicha dastlabki ma'lumotnoma (Hakamlar hay'atining xulosasi va h.k.) rasmiylashtirilgan holda Mudofaa sanoati agentligi vakiliga olimpiada tugagan kuni topshiriladi.

6-bob. Yakuniy qoida

6.1. Mazkur nizomda belgilangan masalalar bo'yicha nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.